

2023-yil 5-may kuni Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Janubiy Koreyaning Xankuk chet tillari universiteti professori, f.f.f.d. (PhD) Aziza Mashrabbekova ishtirokida “Janubiy Koreya universitetlarida o‘zbek tilini o‘qitish tajribasidan” mavzusida xalqaro vebinar tashkil qilindi. Vebinarida ToshDO‘TAU prorektori O.R.Jamoldinova, O‘zbek tili ta’limi fakulteti professor-o‘qituvchilari, talabalari va ZOOM orqali boshqa qiziquvchilari ham qatnashdilar.



Dastlabki so‘z Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi prof.Odinaxon Rasulovna Jamoldinovaga berildi. O.R.Jamoldinova o‘zbek tilining nufuzini oshirish, jahon miqyosida o‘zbek tilini o‘rgatish va o‘rganish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishda olib borilayotgan ishlar, bugungi vebinarining ahamiyati haqida gapirdi.

Ma’ruzachilar – Xitoy Xalq Respublikasi Pekin shahrida joylashgan Markaziy Millatlar universiteti Chet tillari fakulteti “Rus va Markaziy Osiyo davlatlari tillari” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Mirzaahmedova Dilsora, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Folxlorshunoslik va dialektologiya” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Rahmatov Mardonlarning chiqishi vebinar ishtirokchilarida katta qiziqish uyg‘otdi. Vebinar norasmiy, o‘zaro fikr almashishlarga boy tarzda o‘tkazildi. Savol-javoblar, muzokaralar, munozaralar natijasida vebinar ishtirokchilarida xitoyliklarga o‘zbek tilini o‘qitish borasida muayyan yangi g‘oyalar paydo bo‘ldi va ular bu sohada yangi loyihalarni amalga oshirishga kelishib olishdi.